

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI TEMIR YO'L  
TERMINOLOGIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

*UzDJTU Tarjimonlik fakulteti*

***Dilorom Mirsagatova***

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada temir yo'l terminologiyasi va uning tilshunoslikdagi o'rni, shakllanish jarayoni, strukturaviy va funksional xususiyatlari tahlil qilingan. Unda zamonaviy tilshunoslikda temir yo'l terminlarining turli manbalar orqali shakllanishi, xalqaro terminologik tizimlar, madaniy va mintaqaviy farqlar, o'zbek va ingliz tillarida uchraydigan temir yo'lga oid leksik birliklar qiyosiy tahlil etilgan. Shuningdek, terminlarni standartlashtirish va ularning fan-texnika taraqqiyotidagi o'rni haqida fikr yuritiladi. Maqola tilshunoslik, tarjima nazariyasi va texnik kommunikatsiya sohalarida izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar uchun foydalidir.

**Kalit so'zlar :**temir yo'l terminologiyasi, leksik birliklar, terminlarning shakllanishi, terminlarni standartlashtirish, madaniy farqlar, texnik atamalar, tarjima nazariyasi, terminologik tizim

**Annotation:** This article analyzes the field of railway terminology and its role in linguistics, focusing on its development, structural features, and functions. It explores how railway terms have evolved through various sources in both Uzbek and English, as well as the influence of international standardization systems, cultural and regional differences, and the comparative lexical analysis between English and Uzbek. The article also discusses challenges in naturally formed terminology and the importance of terminological unification in scientific and technical communication. This work is particularly relevant for researchers in linguistics, translation theory, and technical communication.

**Key words:** railway terminology, lexical units, term formation, terminology standardization, cultural differences, technical terms, translation theory,

terminological system

Jamiyat hayotida yuz beradigan har qanday texnik-texnologik jarayon, yaratilgan kashfiyot, ilm-fan sohalaridagi yangiliklar muayyan terminlar bilan ifoda etilib, buning natijasida tilning terminologik apparati boyib boradi. Boshqacha aytganda, borliq hodisalarning lisoniy ongda maxsus ifodaviy shaklga kirishi va turg'unlashuvi tilda terminlarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi<sup>1</sup>.

Fan-texnika sohasida ilmiy tushunchalarni nomlash va bayon etishda terminlar alohida o'rin tutadi, hech bir fan sohasini terminlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Dunyo tilshunosligining terminologiya maktablari, xususan, Avstriyadagi "Vena terminologiya maktabi", Rossiyadagi "Rossiya terminologiya maktabi", Chexoslovakiyaning "Praga terminologiya maktabi" kabilar terminlarning fan sohalarida naqadar muhim o'rin tutishidan dalolat beradi. Shuningdek, INFOTERM, TERMNET, ISO, ISO 860 kabi butunjahon terminologiyani standartlashtirish qo'mitalarining ish olib borayotgani, ularning sa'y-harakatlari bilan tuzilgan ISO 704 – xalqaro terminologiya standartining faoliyat yuritayotgani ham terminlarning kishilik jamiyatida o'rni beqiyos ekanini ko'rsatadi<sup>2</sup>.

Terminlarning shiddat bilan tillarda o'zlashib borishi, shuningdek, turli mamlakatlar olimlari o'rtasidagi ilmiy aloqalar va maxsus fanlarning birgalikda ishlab chiqilishi har bir soha terminologiyasini rivojlanishiga bo'lgan talablarning o'sishi bilan izohlanadi.

Chernishova L.A. fikriga ko'ra "temir yo'l sohasi uchun muhim bo'lib hisoblangan terminlardan biri bu ***motion-harakatlanuvchi tarkib*** termini dastlab yo'lda harakatlanishi mumkin bo'lgan har qanday transport vositalariga ishora qilib, temir yo'lda harakat, yuk va yo'lovchi tashuvchi vagonlarni anglatadi. Harakat tarkibidagi xilma-xillik juda katta, ularning har biri ma'lum maqsadlar

---

<sup>1</sup> Кўчимов Ш.Н. Хукукий нормаларни ўзбек тилида ифодалашнинг илмий-назарий муаммолари (лингвояюридик таҳлил): Филол. фан. докт. ...дисс. – Т., 2004. – 280 б.

<sup>2</sup> Қосимов Н. Ўзбек илмий-техникавий терминологияси масалалари. - Т., 1985.

uchun mo'ljallangan - *suyuqliklar uchun tankerlar, konteyner tashish uchun tekis vagonlar va yo'lovchilar uchun "platscard" va "kupe" vagonlar* ma'nolarini anglatadi.

Temir yo'l transporti leksikasi tashkiliy va ekspluatatsion jihatlarini ham o'z ichiga qamrab oladi. Masalan, *jadval, o'tish huquqi* hamda *terminal* kabi terminlar temir yo'llarni boshqarish va ishlatishning ajralmas qismi hisoblanadi. Jadval nafaqat poezdlar harakatini belgilaydi, balki samaradorlik va aniqlikni ta'minlash yo'llari, stantsiya platformalari va harakatlanuvchi tarkibning mavjudligini ham mohirona muvofiqlashtiradi. Muayyan yo'lni bosib o'tish uchun poyezdning qonuniy huquqiga ishora qiluvchi ***right of way-yo'l huquqi*** termini temir yo'l harakatini boshqarishning tizimli xususiyatini belgilaydi. Shu bilan birga, ***terminal- temir yo'l yoki boshqa transport yo'lining oxiri yoki shunday nuqtadagi stantsiyasi*** hisoblanib, odatda temir yo'lning so'nggi nuqtasidir. Terminal yo'lovchilar yoki yuklarni tashish uchun jihozlangan bo'lib, ushbu termin temir yo'l tizimidagi turli tuzilmalarni qanday belgilashini ko'rsatadi.

Temir yo'l tizimlari uchun zarur bo'lgan ishlash va xavfsizlik mexanizmlarini anglatuvchi terminlar qatoriga ***signal*** terminini kiritish mumkin. Masalan: ***block signaling, cab signaling, blok signalizatsiyasi, kabina signalizatsiyasi va h.k.z*** kabi terminlar poyezdlar harakatini boshqarish va to'qnashuvlarning oldini olish uchun ishlatiladigan turli usullar va texnologiyalarni tavsiflaydi. Mexanik qo'llardan foydalanadigan hamda temir yo'l signallarining eng qadimgi turlaridan biri bo'lgan ***Semafor-belgi signali***, signallarni asosan ilg'or elektron signalizatsiya tizimlari bilan almashtirilgan. Biroq, bu terminlarni o'ziga xos lisoniy jihatlarini tushunish, xavfsizlik va aloqa texnologiyalari temir yo'l sanoatida qanday rivojlanganligini turli tizimli tillarda qiyoslab o'rganish dolzarb masala kasb etadi. Bundan tashqari, temir yo'l terminologiyasi madaniy elementlarini ham o'z ichiga qamrab oladi. Masalan, turli hududlarda o'xshash tushunchalar uchun o'ziga xos atamalar bo'lishi mumkin. Buyuk Britaniyada, AQShda ***"freight wagon - yuk tashish, tovar tashiydigan poyezd"*** deb nomlanuvchi obyekt ko'pincha

“*commodity waggon-tovar tashuvchi poyezd*” deb nomlanadi. Bu esa kengroq madaniy va tarixiy kontekstlarni aks ettiruvchi nozik areal, mintaqaviy farqlarni ochib beradi.

Temir yo‘l terminologiyasi (leksikasi) har qanday til, jumladan, o‘zbek tilining umumiy texnik terminologik tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Unga kiritilgan ko‘pgina so‘zlar xalqaro terminologik elementlardan unumli foydalanish asosida shakllangan. Boshqa tillardan o‘zlashtirilgan so‘zlar va xalqaro terminlar bir vaqtning o‘zida boshqa terminologik tizimlarda qo‘llanilishini ham kuzatishimiz mumkin<sup>3</sup>.

Zamonaviy tilshunoslikda temir yo‘l terminologiyasi tizimini tahlil qilish, dastlab qadimiy yozma manbalarda qayd etilgan. Bunda turli davrlarda turli sohalarda ilmiy tilning neologizmlar bilan parallel tarzda ifoda etilishi oqibatida terminlarni aniqlash imkonini bergan. Maslalan, *gimlet - parmacha* (yog‘och teshadigan asbob), *screw - burama mix*, *clunker - katta arava* (shovqin soluvchi arava), *fire bar - panjara* (yoqilg‘i ostida havo o‘tishi uchun turadigan quyma temir panjara), *mines - konlar*, *gauge - andoza*, *knob - do‘ngalak*, *drill - drel (parmalagich)*.

Shunday qilib, haqiqiy terminologik tizimning shakllanish jarayonida so‘zlarni umumiy qo‘llanishi, frazeologik birliklar, mahalliy dialektlar va hatto maxsus sohaga oid oddiy xalq tilidagi so‘zlarni ham tahlil qilish mumkin. Bunday terminlar tarkibiga quyidagilarni misol tariqasida keltiramiz: *passing station - o‘tish stansiyasi*, *car - yopiq vagon*; *boarding car - vagonlarni ta‘mirlovchi ishchilar uchun uy-joy*; *car-repair track - vagonlar ta‘mirlash yo‘li*, *coach or chair car - o‘rindiqli yoki stul mashinasi*, *coach-sleeping car - yumshoq stullar bilan jihozlangan yo‘lovchi vagoni*, *drop bottom car - pastki vagon (ochiladigan pastki qismi bo‘lgan aravacha)*, *ropeway car - kuzov yo‘li*, *body track - marshal hovlisi*, *aluminum dish – alyumin idish (alyuminiy lagan)*, *line section – temir yo‘l chiziq qismi*, *interstation track – belatlarrao yo‘l*, *tunnel casing – yer osti*

---

<sup>3</sup> Олматова Ш.С. Лексико-семантический анализ терминологии железнодорожного транспорта в таджикском, русском и английском языках. Диссертация. Д.: 2020. –Б.28.

*yo'li qoplamasi (yer ostini tozalash korpusi), lay-out track – yo'lni tartiblash, the anti-skid regulator – siljishga qarshi regulyator (temir yo'li relslarini siljimaslik uchun maxsus regulyator), bearer – xabar yetkazuvchi, tongs – qisqich, maintenance party – texnik xizmat ko'rsatish xonasi, rear end of the train – poyezdning orqa uchi* va boshqalar.

Ingliz va o'zbek tillarida temir yo'l terminologiyasining kelib chiqishi va turli manbalardan shuningdek, boshqa lingvistik vositalar yordamida mazkur manbalarni to'ldirishi ham ahamiyatga molik. Mazkur g'oyani ba'zi tadqiqotchilar ham ta'riflagan. Xususan, tabiiy ravishda shakllangan terminologiyalar ko'pgina kamchiliklarga va nuqsonlarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, tabiiy ravishda rivojlangan terminlar o'quv va pedagogik jarayonni qiyinlashtirishi, ilmiy, texnik va o'quv adabiyotlaridan foydalanishda ortiqcha mehnat va vaqt sarflanishiga olib kelishi mumkin.

### **Adabiyotlar royhati.**

1. Қўчимов Ш.Н. Ҳуқуқий нормаларни ўзбек тилида ифодалашнинг илмий-назарий муаммолари (лингвоюримдик таҳлил): дис. ... докт. филол. наук. – Тошкент, 2004. – 280 б.
2. Қосимов Н. Ўзбек илмий-техникавий терминологияси масалалари. – Тошкент: Фан, 1985. – 176 б.
3. Олматова Ш.С. Лексико-семантический анализ терминологии железнодорожного транспорта в таджикском, русском и английском языках: дис. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2020. – 145 с.
4. Чернышова Л.А. Термины железнодорожного транспорта и их семантическая специфика в профессиональном употреблении // Вопросы терминоведения. – Москва, 2018. – № 3. – С. 25–32.
5. ISO 704:2009. Terminology work – Principles and methods. – Geneva: International Organization for Standardization, 2009. – 44 p.

6. Prager Schule der Terminologie. Beiträge zur linguistischen Terminologieforschung. – Prag: Universität Prag, 1982. – 210 S.

7. INFOTERM. The International Information Centre for Terminology. – Vienna, 2020. [Elektron resurs] – URL: <https://www.infoterm.org>

8. TERMNET. International Network for Terminology. – Vienna, 2020. [Elektron resurs] – URL: <https://www.termnet.org>